
OILAVIY BOG'CHALAR SONI KO'PAYMOQDA

“Qanjirg’a” MFYda hokim yordamchisining tavsiyasi bilan tashkil etilgan “Zvyozdochka” nomli oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat olib bormoqda. Shohsanamxon Fozilova rahbarlik qilayotgan ushbu maktabgacha ta’lim tashkiloti hokim yordamchisining tavsiyasi bilan 35 million so‘m imtiyozli kredit mablag‘ evaziga ish boshlagan. Rus tiliga ixtisoslashtirilgan ushbu muassasada hozirda 30 nafar bolajonlar tarbiyalanmoqda.

– 25 yildirki, ushbu sohada ishlab kelaman, – deydi Feruzaxon Mamedova. – Bolalarsiz hayotimni tasavvur qila olmayman. Ular bilan ishlasam, ularga nimadir o‘rgatsam ko‘nglimga quvonch kiradi. Barchasi o‘zimning farzandimdek bo‘lib qolgan. Bu yerda bolalar uchun barcha sharoitlar muhayyo. Besh mahal mazali issiq ovqat beriladi. Bolajonlarimizning har kuni bog‘chamizga oshiqishi ham shundan. Hokim yordamchisi Sardorbekning tavsiyasiga ko‘ra, 3 nafar kam ta‘minlangan oila farzandini muassasamizga bepul qabul qildik.

2023-08-03 16:52:30